# OLIY TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

***Yangiboyev Shaxzod Xusniddin o'g'li***
*Toshkent kimyo texnologiya instituti Yangiyer filiali 3-kurs talabasi*

***Eshonqulov Yusufjon Alimboy o'g'li***
*Toshkent kimyo texnologiya instituti Yangiyer filiali 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Oliy o'quv yurtlarida talim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim texnologiyalaridan puxta foydalana oladigan kadrlarni yetshtirish. Oliy ta'lim talabalarini intellektual saloxiyatini oshirish va samarador bo'lgan bilimlarni innovatsion texnologiyalar orqali yetkazish.

**Kalit so'zlar:** Innovatsion texnologiyalar, pedagogik texnologiyalar, ta'lim texnologiyasi, "Ta'lim axborot texnologiyalari" qo'llanma.

## KIRISH

**Ma'lumki jahon miqyosida axborot -kommunikatsion va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish va ta'lim jarayonida keng qo'llash kuchayib bormoqda. Bu esa o'z navbatida o'qituvchi va proffesorlarni innovatsion texnologiyalardan majmuviy foydalanishga tayyorlash metodikasini tizimli ravishda takomillashtirishni taqozo etadi. Ta'lim mamlakat hayotining bugungi kelajagini ko'satib beruvchi asosiy mezonlardan bo'lganligi va davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi sababli ta'lim berish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.**

**O'zbekiston Prezidenti Sh**. Mirziyoyev 2018-yil 24-oktabr kuni oliy ta'lim sohasini yanada rivojlantirish kadrlar tayyorlash sifatini oshirish ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini oshirishga bag'ishlangan yig'ilishda " Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish , o'quv dasturlarini ishlab chiqarish bilan hamohangligini taminlash eng asosiy masala ekanligini " takidlab o'tdi.

## ASOSIY QISM

Zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarning asosiy tamoillari sifatida quyidagilar: uzliksiz malakani oshirish, muntazam taxlil qilib borish, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan eng ilg'or tajriba va axborot texnologiyalarni o'zlashtirilish, loyihalashtiruvchi vositalarning eng zarurini tanlash, ta'lim berishda oldinga qo'yilgan maqsadni to'g'ri aniqlay bilish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalana olish, natijalarni oldindan tahlil qilish va boshqalardan iborat.

Ma'lumki oliy ta'lim sohasida ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash qator afzalliklarga ega. Innovatsion ta'lim texnologiyalari talabalarning o'quv-tarbiyaviy ishlarining bir yoki bir necha sohalarda bilimlarini, amaliy ko'nikma va malakalarni samarali o'zlashtirishlari, shuningdek ular shaxsiy xususiyatlarni va axloqiy sifatlarning rivijlanishini taminlaydi. Bundan tashqari innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonning tashkiliy-metodik vositasi hisoblanadi.

Ta'lim texnologiyasi samarali natijani va ta'lim maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsion , innovatsion va pedagogik texnologiyalar yaxlit majmua hisoblanib, ta'lim maqsadlariga erishishda , kuch va vaqt sarf qilishda, inson imkoniyatlar va texnik zaxiralardan foydalanish maqbul yo'l va vositalarni ta'minlaydi.

Ta'lim texnologiyalarini o'z dars mashg'ulotlarida qo'llay oladigan moxir ijodkor ustoz, murabbiy va professor-o;qituvchilar talabalarga nafaqat nazariy bilim berish balki ularni mustaqil bilish olishga,

olgan ko'nikmalarini hayoti davomida qo'llash va to'ldirib borishga va ammaliyotda keng qo'llashga o'rgatadi.

Xulosa qilib aytganda,oliy ta'lim sohasining ta'lim jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari bo'lmish pedagogik va axborot texnologiyalaridan optimal foydalanish ta'lim samaradorligini oshiruvchi omil hisoblanadi. Natijada talabalarning nazariy va amaliy intellektual salohiyati rivojlanadi, mamlakatimiz uchun zarur bo'lgan mutaxasis kadrlar tayyorlashda muhim axamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar**

1. R. Alimov, G. Yulchiyeva " Axborot texnologiyalari va tizimlari " Toshkent. 2007-y.
2. U. Tolipov, M. Usmonboyeva " Pedagogik texnologiyalarni tarkibiy asoslari " Toshkent. 2006-y.
3. J. XAKIMOV " Ta'limda axborot texnologiyalari " o'quv qo'llanma. Toshkent. 2016-y.
4. R. Ishmuhammedov " Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish ". Toshkent. 2004

Open Conferences